

Yaxyoyeva Sojida Abdurahimovna  
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
Samarqand filiali dotsenti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## GENDERGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING FALSAFIY- TARIXIY ILDIZLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning falsafiy-tarixiy ildizlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, ayollar va erkaklar teng huquqliligi masalasi qadim zamonlardan buyon qizg'in bahslarga sabab bo'lib kelayotganligi masalasining ilmiy asosi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** gender, gender tenglik, jins, pedagogika, islom, din.

## ФИЛОСОФСКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ОРГАНИЗАЦИИ ГЕНДЕРНО- ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье описаны философско-исторические корни организации гендерно-ориентированного образования. Также объясняется научная основа вопроса о равных правах женщин и мужчин, который с древнейших времен является причиной интенсивных дискуссий.

**Ключевые слова:** гендер, гендерное равенство, пол, педагогика, ислам, религия.

## PHILOSOPHICAL-HISTORICAL ROOTS OF THE ORGANIZATION OF GENDER- ORIENTED EDUCATION

**Abstract.** This article describes the philosophical and historical roots of the organization of gender-oriented education. Also, the scientific basis of the issue of equal rights of women and men, which has been the cause of intense debate since ancient times, is explained.

**Keywords:** gender, gender equality, sex, pedagogy, Islam, religion.

**Kirish.** Gender va feminizm tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, gender tengligi shaxslarning jinsidan qat'iy nazar teng bo'lishi kerakligini ilgari sursa, feminizm ayollar huquqlariga urg'u beradi. Shaxslar ijtimoiy mavqei, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'iy nazar inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishganda gender tengligi yuzaga chiqadi. Gender tengligi buzilishi bilan bog'liq muammolar tariximizda azaldan mavjud bo'lgan. Tarixdan ma'lum Sharqda ayollarga hurmat masalasi G'arbdan ancha avval shakllangan, ko'pchilik manbalarda gender tengligi asosan G'arb davlatlarida shakllanib boshlagani haqida aytiladi.

Adabiyotlar tahlili. XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning tutgan o'rni va ishtiroki masalalari Turkiston ma'rifatparvarlarining diqqat markazida bo'lgani ko'pchilikka ayon. Ayollarning millat farzandlari tarbiyachisi sifatida jamiyatda tutgan o'rni o'sha davrlardayoq e'tiborga olingan. O'tmishda ota-bobolarimiz tomonidan ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularning bilim salohiyatini yuksaltirish va erkaklar bilan jamiyat hayotida, o'zaro tenglik asosida, ijtimoiylashgan holda faoliyat olib borishlarini ta'minlash ishlarining birinchi navbatda, maorif sohasini isloh qilishdan boshlanganligi xotin-qizlar maorifi masalalari mazkur davrning dolzarb muammolaridan biri sanalib kelganining dalilidir.

Islom ta'limoti ayol sha'nini ulug'laydi. Qur'oni karimda ayollar haqida alohida "Niso"(Ayollar) surasi mavjud. Sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) "Jannat – onalar oyog'i

- 18 ostidadir”, – deb marhamat qiladi. Islom shariatida Alloh taoloning kalomida ilm talab qilish musulmonlarning erkagu ayoliga tegishlidir. Hadisi sharifda “Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir”, deyiladi. Islom dinida ayollar ehtirom qilinadi. Alloma Muhammad G‘azzoliy “Asri saodatda sahobiya ayollar tuyalarga minishar (hozirgi mashinalar), g‘azotlarda qatnashar, Rasullohni mehmonga chaqirishar, u zotga xizmat qilishar edi”, deya ta’kidlaydi. Islom dini o‘z ayollariga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan erkaklarni insonlarning eng yaxshisi qatoriga qo‘shadi. Bu xususda hadisda “Sizlarning ichingizda eng yaxshingiz o‘z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lganingizdir”, deya marhamat qilinadi (Imom Termiziy rivoyati).

Islomda ayolning haqlari quyidagicha ado etilishi lozim deb ko‘rsatilgan.

1. Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirinso‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslikni targ‘ib etdi. Bu xususda Muhammad Payg‘ambar mo‘minlarning eng to‘la ishonchlisi xush xulqlisidir. Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir, ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz [1,418], deb ta’kidlaganlar.

2. Ayollarga munosabat to‘g‘risida Qur’oni karimda: “Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta’sir qilmasa) ularni yotoqlarida tark etingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa,) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmangizlar, deb qayd qilingan. “Niso” oyatida aytilganidek, itoatsiz ayolni tarbiya va so‘nggi chora sifatida qattiq og‘ritmasdan urishga izn berilgan. Lekin, ma’lumotlarga ko‘ra Payg‘ambarning o‘zi ayollarini urmagan va xotin kishini urganlarga ham qarshi turgan. “Ne bo‘ldi erkaklarga, xotinlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar”, degan hadis ham bu fikrning isbotidir.

3. Ayollarning ilm olishlari. Ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzdir. Qur’oni Karimda faqatgina ayollarning o‘ziga xos, jismiga muvofiq kelgan (masalan, avratlarini to‘rish, bola emizish, idda muddati, taloq to‘g‘risida va hakoza) qolgan barcha oyatlar erkagu ayolga tegishli hisoblanadi. Ilm haqidagi chaqiriqlar ham shular jumlasidandir. Islomda iymondan keyingi farz ilm olishdir. Buning ahamiyati to‘g‘risida Muhammad payg‘ambar “ilmni Chinga bo‘lsa ham borib, olinglar” deb ta’kidlaydi.

Ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar masalalariga oid qarashlari ham diqqatga sazovor. Uning «Tadbiri manozil» asarida ayollarning quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishlari lozimligi ta’kidlanadi:

- bilimli bo‘lsin;
- e’tiqodli bo‘lsin;
- uyatchan, sharm-hayoli bo‘lsin;
- tabiatan jasur bo‘lsin;
- erini qattiq sevsin;
- tug‘ish va bola tarbiyasi haqida o‘ylasin;
- ezma bo‘lmasin;
- o‘z eriga bo‘ysunsin;
- to‘g‘ri, kamtar va farosatli bo‘lsin;
- hech qachon o‘z sha’niga dog‘ tushirmasin;
- eri bilan ehtiyot bo‘lib, uning hurmatini joyiga qo‘yib, xushmuomala bo‘lishi shart;
- o‘z vazifasini va burchini yaxshi bilsin;
- xotin oila xo‘jaligidagi narsalardan to‘g‘ri, tejab foydalanishni bilsin;
- o‘z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo‘qotsin.

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida milliy o‘zlikni anglash jarayoni bu har bir millatning mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Har bir millatning qadriyatlari, tarixiy taraqqiyot yo‘li, nasl-nasabi, mentaliteti, milliy fe‘l-atvori, yashash tarzi, umuminsoniy taraqqiyotdagi o‘rinda jamiyatning genderga oid ijtimoiy adolatni ta’minlash masalalari ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlash zarur [2].

Inson huquqlari haqidagi g'oyalar juda qadimdan paydo bo'lgan bo'lsada, faqat demokratiya va yuqori ma'naviyat mavjud bo'lgan Afina, Rim kabi davlatlarda keng rivojlandi. Mazkur davlatlarda ayollarning mavqei ham boshqa mamlakat ayollarining mavqeidan farq qilar edi. Ayollarni e'tiborli, go'zal va xushtarbiya qilib tarbiyalash, ularni yaxshi oilaga tayyorlash urfga aylangan edi [3,24]

Gender nazariyasi tarixi antik davrga miloddan avvalgi IV-V-asrlarga borib taqaladi. Platon, Aristotel va Sokrat nomlari falsafiy tamoyilning asosini tashkil etgan patriarxal falsafiy an'ananing shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, uning mohiyati erkaklar va ayollarning ratsional hissiyoti bilan ifodalanar edi. Shuni ta'kidlash kerakki, qadim zamonlardan beri gender masalasining ob'ekti ta'lim bo'lib kelgan, jumladan Aflotun, Aristotel o'z ta'riflarida davlat va jamiyat insonning ta'lim olish qobiliyatini yanada rivojlantirish va boshqarish uchun asosiy bo'g'in ekanligini asoslaydi. [4,105].

Gender paradigmasi G'arbda o'tgan asrning oltmishinchi yillarda paydo bo'lgan. U ijtimoiy uzoq rivojlanish tarixiga ega bo'lgan ayollar harakati va shakllanishning ma'lum bosqichlaridan o'tdi. Postgloballashuv, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqishga intilish, sanoat inqilobi va yuksak sur'atda axborot almashinuvi bilan bog'liq zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlar jamiyat hayotini tashkil etishda progressiv yondashuvlarni talab qiladi. Zamonaviy jamiyatda siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida - oila, iqtisodiyot, mehnat bozori, davlat ma'muriy amaliyotida keng qo'llaniladigan, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida jamiyat hayotini tashkil etishning dolzarb muammosi gender tengligidir.

Gender (ingl. gender, lot. genus «zot, jins, kelib chiqish») - biologik jins tushunchasidan farqli ravishda, jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarni anglatadi. Biologik jins (jinsiy identifikatsiya) inson tabiatining tub jihati sifatida erkak va ayolni ajratib turadigan jinsning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglatadi:

- genetik (erkak, ayol xromosomalari);
- gormonal (jinsiy gormonlar, estrogen, androgen);
- somatik (gavda tuzilishi);
- gonadal (reproduktiv faoliyat);
- fiziologik (erkak va ayol organizmida yuz beradigan jarayonlar).

Gender tushunchasi erkaklar va ayollarning ijtimoiy hayotdagi rollari, munosabatlarning xususiyatlari, jamiyatda qabul qilingan normalarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Gender madaniyatlar bo'yicha farq qiladi va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin [5, 185].

Gender muammosi faylasuflar, jamiyatshunoslar, antropologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, psixolog hamda pedagoglarning e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Genderning psixologik jihatlari taniqli ruhshunoslar Z.Freyd, T.Parsons, R.Stoller, Sh.Bern, A.Bandura, Simona de Beauvoir, A.Klima, S.Kon, A.Usmanova, I.S.Kletsina, E.G'oziyev, O.Abdusattorova, X.R.Haydarova, sotsiologiyaga oid qirralari E.Goffman, R.Xof, A.Kolstkorova, A.Zdravomislova, A.A.Tyomkina, G.K.Zaytsev va A.G.Zaytsev, G.B.Urazaliyeva, falsafaga oid tomonlari Keyt Uest, D.Zimmerman, S.G.Ayvazova, I.Jerebkinalar, antropologiya bilan bog'liq jihatlari YE.R.Yarskaya-Smirnova, pedagogikaga oid ayrim qirralari L.Shustova, P.Repkina, R.Safarova, G.Akramovalarning ishlarida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Ta'lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma'naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta'lim sohasiga yil sayin katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta'lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limning yuqori bosqichlarigacha bo'lgan bo'g'inlar zimmasiga yuklatilgan. Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtayi nazarlarning xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani ajratib ko'rsatish mumkin. Bu konsepsiyalar quyidagilardan iborat:

- 1) genderning ijtimoiy tuzilishi nazariyasi;
- 2) gender tizimi nazariyasi.

Gender tushunchasi amerikalik psixiatr, psixoanalitik, sotsiolog Robert Stoller (Robert Stoller) tomonidan Stokgolmda o'tkazilgan psixoanalitiklar kongressida shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy jins, gender o'zini anglash, gender identifikatsiyasi kabi muammolarni o'rganishga oid ma'ruzasidan so'ng atama sifatida qo'llanila boshladi. Robert Stoller birinchi bo'lib biologik jins va sotsiomadaniy jins (gender) tushunchalarini ajratib ko'rsatadi. G'arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi, ilmiy-kognitiv, ijtimoiy-falsafiy tafakkurida uzoq tarixiy transformatsiyani boshidan kechirgan erkaklar va ayollar xuquqiga oid gender tengligi muammolari o'z aksini topgan. Gender problematikasi eng qadimgi zamonlardanoq qizg'in bahslarga sabab bo'lgan qadimgi yunon faylasufi Antifont asarlarida bayon qilingan tabiat barchani teng qilib yaratgani to'g'risidagi g'oyalardan tortib [6] quyidagi tarixiy evrilishlarni boshidan kechirdi:

- tenglik nazariyalarining paydo bo'lishi;
- saylov huquqi;
- Fransiya inqilobi davrida fuqarolarning teng huquqliligi uchun kurash;
- imkoniyatlar tengligi nazariyasining zamonaviy rivojlanishi;
- feminizm, liberal, radikal feminizm;
- ijtimoiy sotsializatsiya nazariyasi;
- erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlar muammosi;
- Robert Konnellning erkaklar ustunligi nazariyasi;
- gender psixologiyasi, huquqshunoslik, meditsinada gender muammosi;
- ayollar huquqlari uchun kurash va h.

Genderga ijtimoiy jihatdan bo'lgan yondashuv quyidagilardan iborat bo'ladi: biologik nuqtayi nazardan jins muayyan jamiyatda qaror topgan jinsga xos bo'lgan vazifalar va o'g'il hamda qiz bolalarning o'ziga xos xatti-harakatlari, o'zaro hamkorligining ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ko'rinishlari. O'g'il va qiz bolalarning o'zaro hamkorligi tushunchasi R.Xof [7,23-53.] tomonidan kiritilgan bo'lib, o'g'il va qiz bolalarning ma'naviy-madaniy qiyofalarini ifodalaydi. Ushbu yondashuvga muvofiq ravishda gender muayyan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi.

Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar. Gender g'oyasigacha o'tish evolutsiyasi mobaynida quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o'tildi. Mazkur bosqichlar tasnifiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularning turli adabiyotlarda keltirilishi bo'yicha izohlab o'tadigan bo'lsak dastavval diniy konfessional taqiq tizimi amal qilgan. Haqiqatan ham mehnatning ibtidoiy jamoa tuzumida taqsimlanishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil yig'uvchilar vazifasini bajarganlar, faqat ayolgina yerdan to'yimli o'simlik ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar lichinkasini qazib olish bilan mashg'ul bo'lgan. Rivoyatlarda olovni kashf etganlar erkaklar timsolida uchraydi. Ayollar olovning xususiyatlarini o'rganish, uni turmushda qo'llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zarurlarni bajarganlari haqida hikoya qilinadi.

XX asr oxiridagi falsafiy va sotsiologik tahlillar jinsiylik tabiati, jinslararo munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha qarashni ifodaladi. Jamoaning eng dolzarb muammolari - hokimiyat, zo'ravonlik, shaxsning o'zini anglashi va ozodligi sanoatlashuvdan keyingi davrda individning jinsiy mos kelishi va tegishli ijtimoiy rollar muammolari sifatida oydinlashtirildi. Falsafaning asosiy masalalari: inson mohiyati muammosi, ma'nosi, maqsadi, inson mavjudligining makoni va vaqti gender nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi. Genderning yangi konsepsiyasi "xotin - qizlar masalasi"ga kengroq yondashib, uni jinsiy tafovutga oid muammoli maydonga ko'chirdi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ushbu siljish "ijtimoiy tarixdan" "madaniy tarixga" o'tishga mos keladi. Nemis olimi R.Xof faqatgina xotin-qizlar masalasining tahlili bilan chegaralanib, erkaklarning muammolaridan ajralib qoldi. Uning nazarida, genderni asosiy ilmiy kategoriya sifatida tahlil qilishga 4 ta sabab bor:

1. Ayol va erkak o'rtasidagi sababiy bog'lanish hamda odatdagi deb hisoblanadigan muayyan ijtimoiy rollardan voz kechish;
2. Jinslararo munosabat tizimi va boshqa ichki madaniy nuqtayi nazarlar o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash;
3. Erkaklar va ayollar muayyan rollarni bajaradigan ijtimoiy tashkilotni tegishli hokimiyat tuzilmalari tahlilisiz anglab bo'lmashligini tan olish;
4. Turli rollarga olib keladigan farqlash jarayoni ham tahlil qilinishi lozimligiga iqror bo'lish.

Odamlarni rollarga ajratish an'anaviy tus olganligini isbotlash uchun Vanda Lutsiya Zemyuner Italiya va Gollandiyada, ya'ni bir-biridan milliy mentaliteti bilan ajralib turadigan mamlakatlardan ikki guruh bolalar orasida sotsiologik tadqiqot olib bordi. Bu tadqiqotda italiyalik bolalar gollandiyaliklarga qaraganda biror jinsga mansub o'yinchoqlarni ko'proq tanlashgan, chunki italiyaliklar madaniyati nisbatan an'anaviylikka moyil edi. Tadqiqotchi Lenora Veytsman boshchiligidagi sotsiologlar guruhi bolalar kitoblarida gender rollari qay darajada tasvirlanganligini o'rgandilar. Barcha tahlil etilgan kitoblarda jamoat ishlari bilan shug'ullanadigan ayol obrazlari qayd etilmagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sotsiologlar jins muammosiga xolis yondoshilgan kitoblar hali ham bolalar adabiyoti bozoriga kam ta'sir o'tkazayotgan ekan, degan xulosaga kelishgan.

Britaniyalik Jun Stetem o'z farzandlarida "erkak" va "ayol" sifatlarini yangicha uyg'unlikda tarbiyalashga harakat qilgan oilalarda tadqiqot o'tkazgan. Ular o'g'il bolalar boshqalarning tuyg'ularini yaxshiroq his etishini, mehribonroq bo'lishini xohlar, ayni paytda qizlarda ta'lim olish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun imkoniyatlardan faol foydalanishni rag'batlantirardi. Barcha ota-onalar shakllangan gender ta'limiga qarshi turish murakkabligini tan olgan. Chunki bolalar ko'cha va maktabda an'anaviy qarashlarning ta'siriga tushib qolgan.

XX asrning 90-yillarida hokimiyat munosabatlarida gender tengligi qanday darajada ekanligi tahlil etiladi va bunda erkaklar mentaliteti tazyiqini ifodalovchi siyosiy-madaniy istioralar izohlanadi. Mazkur holatdan kelib chiqib, genderning rasmiy tan olinishi va rivojlanish tendensiyalari dunyoning eng dolzarb muammosiga aylandi. Eng muhimi, feminist ayollarning xatti-harakati, so'ngra gender va ilm-fan hokimiyat hamda gender o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan nazariyalarni o'rganish zaruriyatini kuchaytirdi. Ijtimoiy ma'noda gender tengligi nuqtayi nazaridan yondashuvni shakllantirish yangi nazariya paydo bo'lishiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Bu o'z mohiyatiga ko'ra yangi nazariya bo'lib, uni tan olish ba'zan insoniy qadriyatlar o'zgarishi, ko'plab odatdagi tasavvurlar va "haqiqatlar"ning qayta ko'rib chiqilishini anglatadi, bu esa ko'pchilik uchun birmuncha og'irliq kichadi.

Xulosa. Hozirgi vaqtda keng ko'rsatkichlar tizimi tarkib topgan bo'lib, u ayollar maqomi va gender tengligini o'lchaydi. Gender tengligiga o'tish ikki yo'l bilan – himoya siyosati orqali ham, xotin-qizlar harakatida o'z ifodasini topadigan ayollar tashabbusi orqali ham amalga oshirilishi mumkin:

- O'zini-o'zi faollashtirish jarayoni, bunda ayollarning o'zlari o'z hayotlarini tanqidiy va jamoa holida qayta idrok eta boshlaydilar. Ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xotin-qizlarning turli xil tashkilotlari tuzilganligi gender tengligiga erishish uchun ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar va boshqalar bunga misol bo'lishi mumkin. Xotin-qizlarning gender tengligi yo'lidagi harakati qonunchilik, iqtisodiy va madaniy muhit tarzidagi qulay zaminga ega bo'lgan taqdirdagina u ijobiy natijalar berishi mumkin.

- Ayollar rolini faollashtirish shunday jarayon bo'lishi mumkinki, u xotin-qizlarning mustaqilligini oshirish, amalda tanlash tengligiga erishish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tashqaridan rag'batlantiriladi. Bu narsa davlat va jamiyat tomonidan maxsus dasturlar va loyihalar ishlab chiqilib amalga oshirilishini, davlat o'tkazayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining jamiyatda ayollar ahvoliga ta'sirini hisobga olishni, ya'ni ayollarga nisbatan hukumatning himoya siyosati o'tkazilishini taqozo etadi. Uy-ro'zg'orda va jamiyatda ayollarning tarkib topgan holati, iqtisodiy, qonunchilik va ijtimoiy muhit e'tiborga olingan taqdirda bunday siyosat chora-tadbirlarning samaradorligi oshadi. Ijtimoiy muhit mavjud urf-odatlarini, an'analarni,

- 22 ruhiyatni, diniy e'tiqodlarni va shu kabilarni qamrab oladi. Gender munosabatlari sohasidagi siyosat, chora-tadbirlarning samaradorligi jamiyatda jinslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlarini o'rganishni talab qilishi ravshan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Куръони Карим. Т.: Чўлпон. 1992.- 418 б.
2. ГЕНДЕР\_ПАРАДИГМАСИНИНГ\_ТАМАДДУНЛАРАРО\_ДЕТЕРМИНАЦИЯСИ.
3. Маткаримова Г. Аёл ҳуқуқлари. Т.: 2001. -24 б.
4. Дорофей Ю.О. Гендерные стереотипы в античности // Ученые записки Таврического национального университета им. Вернадского. Серия «Философия. Культурология. Политология. Социология». Том 22 (61). 2009. № 2.,р. 105-112.
5. Бурдые П. Мужское господство // Социальное пространство: поля и практики / - М.: Институт экспериментальной социологии; СПб.: Алтея, 2005. - С. 286-365.].
6. Эрих Фромм. Мужчина и женщина. ISBN: 5-237-00060-6. АКТ. 1998.
7. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований. / Пол, тендер, культура. // Подред. Э.ШореиК.Хайдер. – М., 1999. –С. 23-53